

YUSUF XOS HOJIB MA'NAVIY MEROSI TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA

Orzukulov Amirjon Olimjonovich

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

zahi.akramov@gmail.com

+998992536284

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10610021>

Vatanimiz yoshlariga milliy tarixni milliy ruhda, xolisona, ilmiy asosda etkazish, o'tmishdan xulosa va saboq chiqarish asosida o'z taraqqiyot yo'li va kelajagini to'g'ri belgilay oladigan barkamol avlodni tarbiyalashga oid islohotlar davom ettirilmoqda. "Vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega. SHuning uchun ham biz jahondagi ilmiy-madaniy tashkilotlarni O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, asrab-avaylash va targ'ib etish jarayonlariga keng jalb etib, dunyoning turli mamlakatlaridagi shu yo'lda birga ishlash istagini bildirgan olimlar va mutaxassislarga har tomonlama yordam berishda davom etamiz"¹. Jumladan, buyuk alloma, YUsof Xos Hojibning o'n uch ming misradan ortiq, masnaviyda yozilgan "Qutadg'u bilig" ("Saodatga eltuvchi bilim") asari SHarq ma'naviy merosining bebaho manbasi hisoblanadi. Asar jahon olimlari e'tiboridan chetda qolmagan, jumladan, A.Jaubert, H.Vamberi, V.Bartold, V.Grigorev, V.Radlov, A.Kononov, S.Malov, O.Pritsak, A.SHcherbak, E.Tenishev, I.Steblova kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Asar tadqiqot ishlari davomida o'zbek, turk, nemis, rus, ingliz, uyg'ur, qozoq, turkman, ozarbayjon, qirg'iz tillariga o'grilib, ilmiy tarjimalari va tadqiqotlari nashr etilgan. Falsafiy-axloqiy asar hisoblangan "Qutadg'u bilig" – turkiy xalqlarning davlat va jamiyat boshqaruvi, turkiy xalqlarning falsafiy tafakkuri, etnik qadriyatlar, komil inson haqidagi qarashlari, bilim olishning inson uchun ahamiyati, axloq va madaniyat masalalari, bola tarbiyasi, insoniy fazilatlar haqida qarashlari, shuningdek, turkiy adabiyot va tilshunoslik fanlar to'g'risidagi bilimlarni o'zida jamlagan ma'naviy merosdir. "Qutadg'u bilig" asarining ta'sirida turkiy xalqlar adabiyotdan tashqari, butun musulmon sharqiga, ma'naviy tasirini o'tkazganligini inobatga olgan xalqaro tashkilotlardan YUNESKO ikki ming to'qqizinchi yilni "Qutadg'u bilig" yili deb e'lon qilganligi, asarning nafaqat turkiy xalqlar merosi ekanligini balki umuminsoniyat ma'naviy mulki ekanligini tasdiqladi. Vatanimiz olimlaridan, "Qutadg'u bilig" asarini: Q.Karimov², A.Rustamov, G'.Abdurahmonov³, S.Mutalibov, Q.Sodiqov⁴, Q.Mahmudov, B.To'xliiev, Q.Omonov⁵ kabi tadqiqotchilar o'rganishgan⁶. Bizga ma'lumki, turkiy xalqlar tarixi va madaniyatini, adabiyotini o'rganish, jadidchilar ijtimoiy-siyosiy harakatini a'zolarini ham chetda qoldirmagan, jumladan, jadidchi olim, birinchi o'zbek professori, A.Fitratning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bizga ma'lumki, XI asrda YUsof Xos Hojib tomonidan Qoraxoniylar sulolasidan vakili Tabg'ach Bug'raxonga taqdim

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston", 2021. – Б. 37.

² Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи: Қайом Каримов. –Тошкент, "Фан" нашриёти. -1971.

³ Qutadg'u bilig. J.I / Yusuf Xos Hojib; mas'ul muharrir A.Rustamov; nashrga tayyorlovchi G'. Abdurahmonov. ToshDShI. –T. Alisher Navoiy Qutadg'u bilig nomidagi O'zbekiston Qutadg'u bilig Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. -240 b.

⁴ Содиқов Қ. "Қутадғу билиг"нинг уйғур ёзуви Хирот нусхаси. –Тошкент, 2010.

⁵ Омонов Қ. Ўзбек ҳужжатчилигининг асослари: Юзага келиши ва тарихий тақомили. Тошкент 2016.

⁶ Маҳмудов Қ., Содиқов Қ. XI – XV асрнинг туркий ёзувидаги ёдгорликлар. Тошкент, 1994, 162 б.

etilgan “Qutadg’u bilig” asari turkiy xalqlar tarixida alohida o’rinni egallaydi”⁷. Olim Q.Omonov asarni chuqur o’rgangan holda quyidagi fikrlarni bildiradi, “Davlat boshqaruvi va qonunchiligi bilan bog’liq bo’lgan uslub taraqqiyotini, aytish mumkinki, uning eng yuqori cho’qqisini “Qutadg’u bilig” asarida ko’ramiz”⁸.

Anglashimizga ko’ra, asar qoraxoniylar davrining bosh qomusi, huquqiy asosi darajasidagi manbadir. Asarning ahamiyatli tomoni o’rta asrlarda davlat qonunlarini adabiy ko’rinishda, o’git, pand-nasihat, hikoya, rivoyat ko’rinishida, badiiy yo’l bilan yoritish an’anasini sharqda YUsuf Xos Hojib boshlab berdi. Allomaning eng katta yutug’i shundaki, u davlat va jamiyatni boshqarishning yo’l-yo’riqlarini, davlat qonunlarini badiiy ko’rinishda tushuntirishga harakat qildi va bu jarayon, sharq xalqlari ijtimoiy hayotida keng tus oldi. Bu an’ana davom etib, saljuqiylar vaziri Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Kaykovusning “Qobusnoma” asarlari vujudga keldi. “Qutadg’u bilig” asari turkiy tilda yaratilgan g’oyaviy asar bo’lib, u turkiy xalqlar dunyoqarishi va davlat boshqaruvining azaliy an’analari bilan islom mafkurasi uyg’unlashgan asar sifatida yuzaga keldi.

Tadqiqotchilar, asarni Qoraxoniylar davri asosiy qonunchilik kitobi bo’lib, davlatni tutib turuvchi uch asosdan biri *törü* ekani alohida ta’kidlanadi” – deya yozadi⁹. Zero, YUsuf Xos Hojib “Qutadg’u bilig” asarini yozgan davrda, davlat boshqaruvida kelishmovchiliklar tez-tez yuz takrolanib turgan. SHuning uchun, davlatni to’g’ri boshqarish, amaldorning sifatlari, el bilan muomala qilish, ichki odob va tartib qoidalari va unga amal qilish qonun (*törü*) asosida bo’lishi YUsuf Xos Hojib o’z zimmasiga oldi va o’zining “Qutadg’u bilig” asarini yaratdi. Turkiy xalqlar orasida “Qutadg’u bilig”ning mashhurligi shundaki, asarni qardosh Turkiyada ham taniqli olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, jumladan, R.R.Arat¹⁰, A.Dilachar, K.Eraslan, O.F.Sertkaya, A.B.Erjilasun, I.Kafeso’g’lu, N.Kulekchi, E.Ushenmez, K.YAvuz kabilarning xizmatlari ahamiyatlidir. Asarning tarixiy ahamiyati, ijtimoiy mazmuni o’rgangan tadqiqotchi Suer Eker shunday yozadi: XI asrning oxirlarida “Qutadg’u bilig” va “Devonu lug’oti-t turk” kabi turk tili va madaniy merosini kelajak avlodlarga etkazib berishga benazir xizmat qilgan ikki bebaho yozma yodgorlik yaratildi. “Qutadg’u bilig” va “Devonu lug’oti-t turk” yangi turk-islom sivilizatsiyasining ilg’or fikr, san’at va ilm-fanga doir asarlari o’laroq Beruniy, Forobiy, Ibn Sino kabi allomalar etishib chiqqan ijtimoiy-madaniy iqlimning mahsullaridir”¹¹. YUsuf Xos Hojibning xalq orasidan etishib chiqqanligi, uning g’oyalar va falsafiy-ijtimoiy qarashlari, o’z davrning ilg’or ziyolilaridan biri bo’lganligini ko’rsatib turadi. YUsuf Xos Hojib merosi hamda SHarq sivilizatsiyasi va falsafiy fikrlar taraqqiyotini yanada chuqur o’rganuvchi mutaxassislarning yangi avlodini tarbiyalash oldimizda turgan ulkan vazifadir.

⁷ Qutadg’u bilig. J.I / Yusuf Xos Hojib; mas’ul muharrir A.Rustamov; nashrga tayyorlovchi G’. Abdurahmonov. ToshDSHl. –T. Alisher Navoiy Qutadg’u bilignomidagi O’zbekiston Qutadg’u bilig Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – B .6.

⁸ Омонов Қ. Ўзбек ҳужжатчилигининг асослари: Юзага келиши ва тарихий тақомили. Тошкент 2016.

⁹ Омонов Қ. Ўзбек ҳужжатчилигининг асослари: Юзага келиши ва тарихий тақомили. Тошкент 2016. Б.36.

¹⁰ Eski Türk Şeiri - Reshid Rahmeti Arat - Ankara -1991 - 505s

¹¹ Suer Eker. Yusuf Hâs Hâcib. Kutadğu Bilig (1069). Türk edebiyatı tarihi 1.

References:

1. Eski Türk şeiri - Reshid *Rahmeti Arat* - Ankara -1991 - 505s
2. Qutatg'u bilig. J.I / Yusuf Xos Hojib; mas'ul muharrir A.Rustamov; nashrga tayyorlovchi G'. Abdurahmonov. ToshDShI. –T. Alisher Navoiy Qutatg'u bilignomidagi O'zbekiston Qutatg'u bilig Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. -240 b.
3. Qutatg'u bilig. J.I / Yusuf Xos Hojib; mas'ul muharrir A.Rustamov; nashrga tayyorlovchi G'. Abdurahmonov. ToshDShI. –T. Alisher Navoiy Qutatg'u bilignomidagi O'zbekiston Qutatg'u bilig Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. - Б .6.
4. Suer Eker. Yusuf Hâs Hâcib. Kutadğu Bilig (1069). Türk edebiyatı tarihi - January 2006. - pp.193-199
5. Маҳмудов Қ., Содиқов Қ. XI – XV асрнинг туркий ёзувидаги ёдгорликлар. Тошкент, 1994, 162 б.
6. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: “O'zbekiston”, 2021. – Б. 37.
7. Омонов Қ. Қутадғу билиг – буюк маънавий мерос. Илмий конференция материаллари. Тошкент, 2010. - Б. 76,82
8. Омонов Қ. Ўзбек ҳужжатчилигининг асослари: Юзага келиши ва тарихий тақомили. Тошкент 2016. Б. 36.
9. Содиқов Қ. “Қутадғу билиг”нинг уйғур ёзувли Ҳирот нусхаси. –Тошкент, 2010.
10. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи: Қаям Каримов. –Тошкент, “Фан” нашриёти. -1971.